

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
1-26- GURUH TALABASI**

Shoybekova Noilaning

**“O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI  
TARIXI”**

**FANIDAN**

# **KURS ISHI**

**MAVZU: Nodira va Umarxon**

**TOPSHIRDI: Shoybekova N  
QABUL QILDI: MAMATQULOV M.**

GULISTON – 2012

## **REJA:**

### **KIRISH.**

- 1. Nodira hayoti va ijodi.**
- 2. Nodira she'rlarining badiiy latofati.**
- 3. Nodira nazmida muhabbat tasviri.**
- 4. Umarxon hayoti va lirik merosi.**

### **Xulosa.**

O'zbek xalqining atoqli shoirasi Mohlaroyim – Nodira o'zining boy adabiy merosi bilan o'zbek adabiyoti tarixida mumtoz o'ringa ega bo'lgan ijodkordir.

Nodiraning tarjimai holi o'sha davrda va undan keyingi yillarda yozilgan tarixiy va adabiy majmualarda ancha keng yoritilgan. Asli ismi Mohlaroyim bo'lgan shoira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topdi. Rahmonqul o'zbek qabilalaridan Ming urug'iga mansub zodagonlardan bo'lib, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asi edi. Shoiraning onasi Oyshabegim ham o'qimishli ayol bo'lgan. Yoshligidanoq o'zining aqli, go'zalligi va she'riy qobiliyati bilan tanilgan Mohlaroyimni taqdir o'z qavmidan bo'lgan Umarxon bilan hamxona qildi. Bu voqea 1806-1807-yilda Umarxon Marg'ilonda hokim bo'lib turganda yuz bergan edi. Tarixchi Hakimxon to'ra Nodira bilan Umarxon nikohi haqida quyidagilarni yozadi:

“... Ul vaqtda Andijon hukumati Rahmonqulbiy amir Olimxonning tog'asi erdi, unga taalluq erdi. Rahmonqulbiyning pardai ismatida bir qizi bor erdi, ismi Mohlaroyim erdi. Olimxon xohladikim, ul muxaddaranim Umarxonning nikohiga kirguzsa. Ma'sumxon to'rani benihoya hadya birla yubordikim, Umarxonni Andijong'a olib borib, aqdi nikoh qilib, Marg'ilong'a kelturib qo'yib ketgil, deb. Ma'sumxon to'ra Marg'ilong'a kelib, shahzoda Umarxonni domodliqqa taklif qilib, Andijong'a borib, yaxshi soatda ul avji saltanatni tavhidiruhga aqd bog'ladilar” ( Hakimxon “Muntaxab ut-tavorix” O'zFASHI, inv.N594, 161a, b-varaqlar). Mohlaroyim Marg'ilonda Jahon otin Uvaysiy bilan tanishadi.

1810-yilda Olimxon o'ldirilib, o'rniga Umarxon taxtga chiqadi. Mohlaroyim ham o'g'li Muhammad Alixon (1808-yilda tug'ilgan) bilan Qo'qonga ko'chib keladilar. Nodira bu yerda Qo'qon muhitidagi adabiyotga sodiq bo'lgani holda Sharq klassiklari asarlarini qunt bilan mutolaa qildi, o'zining dilkash she'rlari bilan tanila boshladi. Nodiraning she'riy qobiliyatini rivojlantirishda uning hayot yo'ldoshi Amiriy taxallusi bilan mashhur bo'lgan Umarxonning homiyligi ham adabiyotga sodiq bo'lgani holda Sharq klassiklari asarlarini qunt bilan mutolaa qildi, o'zining dilkash she'rlari bilan tanila boshladi. adabiyotga sodiq bo'lgani holda Sharq klassiklari asarlarini qunt bilan mutolaa qildi, o'zining dilkash she'rlari bilan tanila boshladi.

Nodiraning she'riy qobiliyatini rivojlantirishda uning hayot yo'ldoshi

Amiriy taxallusi bilan mashhur bo'lgan Umarxonning homiyligi ham sezilarli edi. Shoiraning katta o'g'li Muhammad Alixon ham Xon taxallusi bilan she'rlar yozadi. Kichik o'g'li Sulton Mahmudxon esa donishmand bir shaxs bo'lib yetishadi.

1822-yili Umarxon bevaqt vafot etadi. Nodiraning 14 yashar o'g'li Muhammad Alixonni xon qilib ko'taradilar. Lekin katta hududni o'z ichiga olgan davlatni o'n to'rt yashar bola idora qila olmasligini nazarda tutgan Mohlaroyim mamlakat ma'suliyatini o'z hifziga oladi. Nodira Umarxon davrida rivojlanib borayotgan madaniy, adabiy hayotni quvvatlab, o'g'li Muhammad Alixonni mamlakatni tinch-totuv boshqarishga da'vat etadi va o'zi unga yaqindan ko'makchi bo'lib turadi. Shoiraning zamondoshi Xotifning guvohlik berishicha, Nodira Umarxon vafoyidan so'ng bu iffat sadafining injusi Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni Qo'qonga chaqirtirib keladi. Nodira bu usta binokorlar yordamida madrasalar soldirib, uning qoshida kutubxonalar tashkil qiladi. Xattotlarga Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Amiriy kabi shoirlarning asarlarini ko'chirtirib, yangi-yangi devonlar tuzishga da'vat etadi. Shoira qo'lyozmalarining chiroyli nasta'liq xatida nuqsonsiz yozilishi, muqovasining bezatilishini o'zi ko'zdan kechirib turadi. U yaxshi ishlagan xattotlar, kotiblarga tilla qalam va kumush qalamdon berib, ularni "Zarrin qalamlik" mansabiga ko'taradi. Manbalarda qayd etilishicha, o'sha davrda mamlakatda yuzaga kelgan madaniy va adabiy hayot yangiliklarining aksariyati shoira nomi bilan bog'langan edi. Xotif Nodiraning aqlu donish, adolat, saxovat, insof, muruvvat kabi yaxshi fazilatlari tufayli "Nodirai davron" laqabi bilan tanilganligini yozadi.

Nodira nihoyatda murakkab bir sharoitda yashadi. U mamlakatning ichki va tashqi hayotidagi o'ta ziddiyatli vaziyatning guvohi bo'ldi. Xonlikda adlu ma'rifat ustivorligi yo'lida kurashdi, begu hokimlarni raiyyatparvarlikka chaqirdi. Davr kishilarini vatanga sodiq, sevgida vafoli bo'lishga tashviq qildi, insoniylikka zid bo'lgan mudhish qonunlar va urf-odatlariga qarshi o'z imkoniyati darajasida kurash olib bordi. Lekin erksevar, ma'rifatparvar shoiraning hayoti fojia bilan tugadi. Zamon aziz farzandlarini e'zozlay olmadi, aksincha tarqoq feodal davlatining ichki ziddiyatlari va xonliklar o'rtasidgi urush-

talashlar shoironing bemahal vafotiga sabab bo'ldi. Nodira 1842-yili 50 yoshida Buxoro amiri Nasrullo tomonidan o'g'illari Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon va norasida nabirasi Muhammad Aminxonlar bilan vahshiyona o'ldiriladi.

Badiiy ijodga katta e'tiqod bilan qaragan shoironing bizgacha uchta devoni yetib kelgan. Ularda shoironing Komila, Nodira va Maknuna taxalluslari bilan yozilgan o'zbek va tojik tilidagi lirik asarlari jamlangandir. Shoira o'zbekcha devoniga yozgan debochasida Navoiy, Fuzuliy, Amiriy devonlari qatori saroydagi xattot ayollar ishtirokida o'zining ham devonlari tuzilganligi haqida ma'lumot bersada, haligacha shoironing o'z davrida ko'chirilgan yoki dastxat holdagi devoni bizgacha yetib kelmagan. O'zbekiston Respublikasi FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Nodiraning to'la bo'lmagan bir devoni fors-tojik tilidagi Maknuna taxallusli devoni H.S.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar instituti fondida Namangandan topilgan yana bir devoni XIX asr ikkinchi yarmida ko'chirilgan qo'lyozmalardir.

Nodira merosining mukammal nashrini amalga oshirish jarayonida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida 1988-yil Samarqandda istiqomat qiluvchi shoir Mahmud Diyoriyning shaxsiy kutubxonasida shoironing Komila taxallusi bilan yozilgan yana bir devonini aniqlashga muvassar bo'ldik. Ushbu devonga Nodiraning o'zbek tilidagi she'rlari to'laligicha Komila taxallusi bilan kiritilgan. Shu bilan birga devonda hali kitobxonga ma'lum bo'lmagan talaygina yangi she'rlari ham mavjud. Hozirgi kunda ushbu Komila devonining fotonusxasi H.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti fondida saqlanmoqda. Shunday qilib, Nodiraning bugungacha aniqlangan o'zbek va fors- tojik tillaridagi asarlari o'n besh ming misradan iboratdir.

Nodiraning o'zbekcha devonlari shoironing kattagina debochasi bilan ochiladi, unda g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarkibband, tarjiband va firoqnomalar kabi adabiy janrlarda yozilgan asarlar jamlangan bo'lib, o'zining g'oyaviy va badiiy barkamolligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shoironing Navoiy va Bedil kabi ulug' siymolar asarlariga bog'langan muxammaslari Nodiraning yirik so'z ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Nodira ijodiga bo'lgan qiziqish shoira hayotlik davridayoq boshlangan edi. Dilshodi Barno Nodirani "ilm – adab va nazm

osmonining yulduzi, ushshoqlar g'azalxoni, shakkar – afshon bulbul” deb ta’riflagan edi. Shoira g’azallarida Nodim, Xotif, Rojij, Furqat, Muqimiy kabi zamondosh va izdosh shoirlar naziralar yozdilar, muxammaslar bog’ladilar.

Nodiraning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotshunosligimizda ko’p yillardan buyon o’rganilib kelinadi. V.Zohidov, V.Abdullayev, A.Qayumov, shuningdek Lutfulla Olim, O’tkir Rashid va T.jalolovlar shoira ijodiga diqqat qildilar. Keyingi yillarda Nodira merosini izlash, aniqlash katta samaralar berdi va bu izlanishlar hozir ham davom etmoqda. Shu davr ichida shoiraning Nodira va Maknuna taxallusida o’zbek va fors- tojik tilida yozilgan she’rlaridan iborat devonlari aniqlanib, ushbu satrlar muallifi tomonidan bir necha bor chop etildi. Shoiraning tojik tilidagi devoni O’zbekiston Respublikasida, shuningdek Tojikistonda nashr etildi. Shoiraning Maknuna taxallusidagi devonidagi she’rlari (S.Anisiy bilan birgalikda) ning nasriy tarjimasini amalga oshirilib ikki tom, uch kitobdan iborat asar sifatida nashr etildi. Shoira she’rlari Sankt – Peterburg olimi S.N.Ivanov tarjimasida rus kitobxonlariga ham yetib bordi. Shoiraning hayotiy va ijodiy faoliyatiga oid monografiyalar chop etildi, badiiy asarlar yaratildi.

O’zining sertarovat, serjilo asarlari bilan o’zbek adabiyoti ravnaqiga munosib hissa qo’shgan, tojik tilidagi she’rlari bilan ham muxlislar e’tiborini qozongan Mohlaroyim Nodira tavalludiga 200 yil to’ldi.

Amir Umarxonning nogahoniy o’limi tufayli Nodira nazmidagi shodlik va baxt tuyg’ulari o’rnini alam va ayriliq iztiroblari tasviri egalladi. Haqiqiy ishq tasviri kuchaydi, tasavvufiy ramzu timsollar chuqur ishlendi, sog’inch va armon nolalari rivoj topdi. Mohlaroyim badiiy ijod bilan astoydil shug’ullandi. U ijtimoiy umrini ezgu ishlarga safarbar etdi. Shoiraning mana bu dono so’zlari uning ijtimoiy faoliyatida o’zining amaliy ifodasini topdi:

Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,  
O’tar bu dayri foniydandan o’zini neknom aylab.

Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o’tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi.

Mohlaroyim Nodira islom diniga samimiy e'tiqod qo'ygan, tasavvuf maslagiga mehr bog'lagan komil musulmon shoira edi. U islom va tasavvuf yo'nalishida katta kitoblar yaratmagan, tafakkur tarixida iz

qoldirgulik kashfu karomatlar ko'rsatmagan bo'lsa-da, ijtimoiy faoliyatini bu ezgu yo'lda shu qadar fidoiylik bilan safarbar etdiki, uning sa'y – harakati bilan din hamda millat takomili uchun tabiiy sharoit vujudga keldi. Shoira amaliy faoliyati nazariy va ma'rifiy yutuqlar omili bo'ldi. Nodira ushbu tarixiy xizmatlarini devoni debochasida iftixor va qoniqish hislari bilan yozadi: “Ulamoyi din rivojlarig'a imdod yetkurdim, to shar'i sharif rivoj topti, zuhd ahliga ixlos va aqidatan zohir qildim, to din va millat kamol topti. Fazlu donish qabilasiga shafqat va marhamatdin oncha inoyatlar ko'rguzdumkim, e'tibor darajasig'a taraqqiy qildilar. Soyil va gadolarni talablarig'a yetkurub, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mushafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko'p yozdurdim. Barchasin xolisanlilloh vaqf qildim”. Bunday iftixor izhori Nodira g'azallaridan ham sado beradi:

Din Nodiradin kamol topti,  
Iqbol rafiqu mulki obod.

Yuqoridagi singari savob ishlarni amalga oshirish Nodira faoliyatining qat'iy shoriga aylanganedi. Uning:

Aylag'il obod tavfiq adolat mulkini,  
Komila, mavlo yo'lida himmati mardona tut

Bayti mazkur shiorning badiiy ifodasidir.

Ammo nosoz ijtimoiy muhit Nodiraga vafo qilmadi. Feodal jamiyatdagi ayosiz kurash Mohlaroyim singari nodir san'atkorlarni o'z manfaati yo'lida qurbon qildi.

Shoira zamondoshlaridan biri u haqda shunday yozgan edi:

Hure bu sifat kelur oz,  
Xurshid kabi jahonda mumtoz.  
Olam aro baski, hukmrondur,  
Bilqisi mamoliki jahondur...  
Fazl ahliga berdi ancha poya,  
Mehridin alar boshida soya.

Ayladi Amir ruhini shod,  
Adl ila qilib jahonni obod.

Bu satrlar “Uzlat”, “Majhur” taxalluslari bilan ko’plab asarlar yozgan shoir Nodirning “Haft gulshan” (“Yetti gulshan”) dostonidan olindi. Ushbu doston Nodiraga bag’ishlangan edi. Shoir uning ilm – fan ahliga e’tiborini, va ayniqsa, adolatini alohida ta’kidlab, “jahon mamlakatlarining Bilqisi” deb ta’riflaydi. Bilqis asli parilar zotidan bo’lib, Sulaymon payg’ambarning umr yo’ldoshi bo’lgan deb naql qilinadi. U kishining nomlari Qur’onga ham kirgan.

Nodira davlatni idora qilishda ko’proq atrofdagi fozila va shoira ayollarga suvandi. O’zi ham qalam egasi bo’lgani uchun she’r ahlini

o’ziga juda yaqin tutdi. “Barno” taxallusi bilan o’zbek va tojik tillarida she’rlar yozgan Dilshod otin Nodiraga bag’ishlovlarida uning bu boradagi murabbiy va homiyligini alohida ta’kidlagandi. Shoir Nodirning “Haft gulshan” asarida shunday satrlar bor:

Yig’ibon har tarafdin necha xotun,  
Barisi fazl – u donnish ichra otun  
Bari Zebunisodek erdi shoir,  
Bari Maryam kabi zuhd ichra mohir.  
Barining fahmi bir-birdin fuzunroq,  
Barining ilmi bir- birdin uzunroq.

Nodira, avvalo, yuksak salohiyatli shoira edi. Uning she’rlarini e’tirof etish, unga naziralar yozish, muxammaslar bog’lash o’z zamonasidayoq boshlangan. Uning faoliyatiga, ijodiga oid ma’lumotlar bir qator tarixiy va adabiy asarlarda uchraydi. Xxasrdan boshlab, u haqda maxsus ilmiy tadqiqot ishlari paydo bo’la boshladi. Shoiraning “Nodira”, “Komila”, “Maknuna”(yashirin) taxalluslari bilan o’zbek va tojik tillarida ijod etgani va asarlarining umumiy miqdori o’n ming misra atrofida ekani aniqlandi. Nihoyat, u haqda adabiyotshunos M.Qodirovaning maxsus monografiyasi maydonga keldi.

Nodira she’riyati qizg’in va hayajonli, boy va mazmundor, ayni paytda fojialar bilan to’la hayotining o’ziga xos sharhlaridan iborat. Bu she’riyatning bosh mavzui ishqdir. Uning har bir satridan ishq hidi anqiydi. Nodira she’riyatining bosh qahramoni ko’pincha Amir

Umarxondir. Barcha ta'rif va tavsiflar, ishtiyoq va intilishlar ungapdir. "Ey!" deb boshlanadigan barcha xitoblar unga qaratilgandir. Bu she'riyatning ijodkori goh baxtidan masrur, goh baxtsizligidan mahzun Nodirabegimdir.

Shoira sig'inadigan yagona Alloh – ishq . Uning toat-u ibodati, namoz-u niyozi ham – muhabbat. U o'z she'rlarida "ishq namozini ado" etishini aytadi. Hatto bir she'rida muhabbatni odamiylikning asosiy o'lchovi hisoblashini bildiradi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et

Zamondoshlari Amir Umarxon bilan Nodirabegim turmushining baxtli kechganini xabar qiladilar. Umarxon ko'p jihatdan mukammal bir kishi bo'lgani ma'lum. U shoir sifatida "Amir", "Amiriy" taxallusi bilan go'zal she'rlar bitgan, devon tartib qilgan edi. Shijoati va botirligi shundan ham bilsa bo'ladiki, tarixiy manbalar uning arslon bilan

yakkama- yakkama olishib, yengib chiqqanini malum qiladi. Shoiraning umr yo'ldoshi bu qadar suyishi va undan iftixor etishi bejiz emasdi. Yorning o'zi u yoqda tursin, xabarchisi ham unga bir dunyo quvonch bag'ishlardir:

Marhabo, ey payki sulton, marhabo,  
Hudhudi mulki Sulaymon, marhabo,

Tal'atning farrux, muborak maqdaming  
Qildi kulbamni guliston, marhabo.

Xo'b kelding, yaxshi keltirding xabar,  
Aylading dardimga darmon, marhabo...

Yorning o'ziga esa, shoira joni – jahonini fido qilishga tayyor:

Ne g'amdur menga ishq aro, Nodira,  
Agar bo'lsa, jononga jonim fido.

Sharq she'rshunosligida ijodkorlarning iste'dodi, kamolot darajasi va mahorat miqyoslariga baho berilganda, odatda, uning devon yaratgan- yaratmaganligiga asoslanishgan. Chunki so'z san'atkorlari yaratgan asarlari miqdori devon tartib etishga yetib borgan bo'lsa-da, she'r yozish mahoratlari, malakalari yetilgan, badiiy uslublari sayqal topgan davrlardagina devon yaratishga jur'at etganlar. Bunday yetuk shoilarni "sohibi devon" iborasi bilan ardoqlashgan. Mohlaroyim Nodira ham sohibi devon shoira edi. Nodiraning zullisonaynlik fazilati ham uning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Ikki til egasi bo'lish til bilishnigina emas, balki ikki xalq madaniyatini o'zlashtirganlikni ham anglatadi. O'z tuyg'u- kechinmalari, o'y – fikrlarini ikki tilda barobar badiiy tasvirlash zullisonaynlik mahoratini taqozo etadi. Nodira shunday mahoratli shoira edi va buni uning o'z faxriyasi ham tasdiqlaydi:

Bo'lubdur Nodira mumtozi ma'ni,  
Kalomi ravshanu ash'ori farrux.

Chindan ham Nodira ma'ni mumtozi, so'zi ravshan, she'rinurafshon so'z san atkori edi.

Nodira badiiyat ilmidagi san'atlarni mukammal o'rgangan va she'riyatiga tabiiy tatbiq eta olgan shoiradir. U badiiy usul imkoniyatlaridan foydalanib, aqlni hayratga soluvchi manzaralar ijod qilgan. Ayniqsa, mubolag'a san'atini go'zal ma'nolarni suvratlantirishga mohirona safarbar etgan:

G'amimni sharhini yuz mingdan birini dedim,  
Falak ani ko'tarurda xam ayladi qomat.

Shoira qismatiga tushgan g'am yuki shu qadar og'irki, uning yuz mingdan bir ulushi izhor etilganida, falak ko'tarolmay, qaddi bukilib qolgan ekan. Bunday mubolag'a vujudga kelishiga osmonning egilgan holatdagi ko'rinishi asos bo'lgan. Yerdagi ohning ko'kkacha yetib borishi-chi? Bu ham mubolag'a vujudga mo'jizasi, albatta:

Ohim o'qig'a qadim kamondur,  
Bu o'qni nishonidur Surayyo.

Ushbu bayt zamiridagi tashbih – naqadar xayoliy qudrat mahsuli! Shoiraning ohlari koinotni o'rtaydigan ohlar bo'lganini bir tasavvur

qilaylik! Bu ohlar g'am – alam epkinidan tarkib topgan shoira qaddi kamonidan falakka otilgan otashin o'qlardir. Bu o'qlar Surayyo sayyorasini mo'ljalga oladi va bexato uradi. G'am yuklaridan egilgan qomatni va iztiroblarga to'lgan qalbni bundan-da tiniq, aniq, go'zal tasvirlash mumkinmi? G'am yuki og'irligidan alifdek qomat yoysimon shaklga kiradi, yoydek egilgan qad kamonidan falakka g'am o'qlari otiladi, olamdan oshgan ohlarning mingdan bir ulushini ko'tarolmay, falakning qaddi kamondek egiladi!

Nodiraning mazkur baytlari Lutfiy hamda Mashrabning quyidagi baytlari bilan hamohanglik va hamdardlikda bahslasha oladi. Lutfiy yozadi:

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,  
Ohi saharim, xoh inon, xohi inonma.

Lutfiy g'azaliga tazmin bog'lagan Mashrab so'zini ustozdan-da o'zdiradi:

G'am shomi firoqingda kabob etti falakni,  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.

Nodira ijodida Turdidek isyonkor shoirlar bilan ham hamovozlik yaqqol yangraydi. Turdi "Joy osoyish emas hech kimga bu ko'hna ravoq" deya dunyo va dunyoparastlikni rad etsa, Nodira:

Jahon, ey Nodira, el maqtalidur,  
Emastur joyi osoyish bu maslax,-

deya hasrat chekadi.

Mubolag'aga muqobil san'atlardan biri kuchaytirish bo'lib, uning Nodira devonida qo'llanish mahorati ham she'rxon idrokini sehrlaydi :

Belining borlig'in qildi kamarbandi ayon,  
Og'zi yo'q erdi, ani qildi padidor hadis.

Sharqda belning ingichkaligi, og'izning torligi tashqi go'zallik belgilaridandir. Maqsad insondagi mana shu nazokatni tasvirlash. Nodira g'azalidagi manzurning beli ko'z ilg'amas darajada nozik ekanki, uni kamarbandi, ya'ni turkona aytganda, belbog'i sezdirib

qo'yibdi. Og'iz yo'q darajada pinhon emishkim, borligini so'zlagan so'zlari oshkor etibdi.

Nodira o'z she'rlarini quyuc falsafiy fikrlar bilan yo'g'irishga harakat qilarkan, badiiyatidagi nazmiy ko'p ma'nolikni yuzaga chiqaruvchi san'atlarni ishga soladi. Jumladan, shoira tajnis, ya'ni bir jins yo shakldagi so'zlarni bir necha ma'noni ifodalashga bo'ysundirish usulini erkin qo'llaydi.

Nodira muhabbat tasvirining fidokor ustasidir. Uningcha, odam muhabbat ixtiyor etganidagina chinakam komil inson qiyofasini kasb etishi mumkin. Shoiraning ixlos e'tiqodicha, "gul sayri" ham, "fikri bahor" ham, jahonning jami huzur – halovatlari ham "vasli yor" vositasida muyassar bo'ladi:

Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,  
Jahondin kech, hayoli vasli yor et.  
Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et...  
Kuyib, ey Nodira, olam elig'a  
Muhabbat shevasini oshkor et.

Nodira yona – yona ta'rifu tavsif etgani qanday muhabbat o'zi?  
Shoira mana bu baytda o'zi ishqqa qisqa, ammo aniq, teran ta'rif bergan:

Ma'ni muhabbat na qilursan manga,  
Ramzi haqiqat erur ishq majoz.

Nodiraning ushbu sharhi ko'pgina ulug' mutasavvuf shoirlarning mumtoz adabiyotdagi ishqqa bergan izoh va ta'riflariga muvofiq keladi. Darhaqiqat, barcha mutasavvuf shoirlardagi singari, Nodira ijodida ham ishq majoz, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbati ramziy ma'noga ega. Uning she'rlarida ishq majoz haqiqiy, ya'ni ilohiy ishqning ramzidir.

Mumtoz adabiyotimizda ikki xil ishq – majoziy ishq va haqiqiy ishq tushunchalari mavjud. Majoziy ishq – insonning insonga, tabiatga, borliqqa hayotiy, dunyoviy sevgisini anglatadi. Haqiqiy ishq esa insoning vujudi Mutlaqqa, Yaratganga, Ollohga muhabbat tuyg'ularini ifodalaydi. Bu ikkala ishq turini alohida ajratish yoxud bir – biriga

qarama- qarshi qo'yish kabi yanglish nuqtai nazar, afsuski, hamon davom etmoqda.

Mohiyatan, yaratilmishga ishq bog'lash Yaratuvchiga muhabbatning ramzi edi. Negaki, zarrada quyosh aks etganidek, yaratilmisgda yaratuvchi jamoli jilvagar va mujassamdir. Ya'ni, majoziy ishq haqiqiy ishqning ramziy bir ko'rinishi, xolos. Navoiy aytmoqchi, nazari pok, ruhan va ma'nan barkamol insongina majoz ishqini ishq haqiqiy darajasiga ulug' hamda mo'tabar tuta oladi. Bunday kishi uchun majoz ishq Haq ishqining o'zginasidir, chunki zarraga muhabbat uning asl manbai bo'lmish Quyoshga muhabbatni ham aynan anglatadi. Insoniy ishqni kuylashdan maqsad ilohiy ishqni ulug'lashdir. Tasavvuf ahli uchun bu bir yo'l, uslub edi. Majoziy ishq Haq muhabbatini qozonish yo'lidagi bir bosqich bo'lib, solik ishq haqiqiy ishqqa shu bosqichorqali yo'l topgan. Savol tug'iladiki, moddiy dunyoda yashagan, oila qurgan va farzandlariga mehr – muhabbat bilan yashagan ijodkorlar nahotki faqat Haq yodi bilan ijod etgan yoxud tanho Tangri taolo vaslinigina kuylab o'tgan bo'lsalar? Ayniqsa, Nodira singari oilaparvar siymolar ijodidagi ilohiy ishq talqini shunday qaltis savolga duchor kelishi mumkin. Bunga javoban aytish mumkinki, quyoshga muhabbat uning zarrasiga bo'lgan ishqni inkor etmaydi, aksincha, quyoshga muhabbat zarralarga muhabbatni ham qamrab oladi. Yaratuvchiga bo'lgan muhabbat uning ijodiga, ya'ni yaratilmishga bog'langan muhabbatning takomillashgan, barkamol, oliy namunasi. Navoiy ta'kidlashicha, oshiq majoz orqali haqiqiy ishqqa yo'l topadi. Haqiqiy ishq shaydolari bo'lmagan kishilargina majoziy ishqni ham inkor etadilar.

Nodira nazdida ishqsiz dinu mazhabga berilish komil musulmonlikka olib bormaydi. Ishqu muhabbat oshiqning dinu mazhabiga aylansagina u kamolot qozonadi:

Qil, Nodira, muyassar sho'ri junun jahonda,  
Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.

Shoiraning lirik qahramoni parvonavor oshiqlik talabgori. Uningcha, chinakam oshiq quruq da'vo bilan cheklanmasdan, shamdek kuymoq, parvonadek olovda o'rtanmoq xislatiga, qudratiga ega bo'lishi kerak. Shunda uning muhabbati husni ishq darajasiga ko'tariladi, kuli ko'zlarga to'tiyo bo'ladi:

Husni ishq aylar sening xokistaringni to'tiyo,  
Sham'din kuymakni kasb et, mazhabi

Xo'sh, "mazhabi parvona" – ishq o'tida parvonavor o'rtanmoq nimadan iborat? Bu sof tasavvufiy tushuncha bo'lib, uning tavsifini Alisher Navoiyning ishq haqiqiy nizomnomasi yanglig' bitilgan falsafiy- badiiy dostoni – "Lison ut- tayr"dan topish mumkin. Asarda "Parvonalar majma'i sham'i haqiqiy sharhida" sarlavhali qism bor. Unda tasvirlanishicha, parvonalar to'dasi bir kecha haqiqiy sham' (ya'ni, Haq taolo) vasliga erishmoqchi, uning nuridan nishon izlamoqchi, asl zotini aniqlamoqchi bo'ladilar. Ulardan bir nechalari birin- ketin sham' huzuriga parvoz qiladilar, uning nuridan ko'zlarini munavvar etadilar. Sham' xosiyatini olamga yoyish uchun o'rtanib so'zlaydilar. Ammo, ular qanchalik ravshan yonib so'zlamasinlar, sham'ning mohiyatini boshqa parvonalariga yetkaza olmaydilar. Shu ko'yi boshqa parvonalar ham o'zlarini sham'ga uradilar, qanot- quyruqlarini kuydiradilar, ammo sham' shu'lasini sharhlay olmaydilar. Zotan, shu'lani til sharhlayolmas, kuymasdanturib, uning mohiyatini anglamas, shu'la nuriga yo'g'rilmasdan oshiq poklanmas, vujudi yona-yona kulga aylanmay turib, haqiqiy sham' vasli mohiyatiga yetolmas, u bilan birlik hosil etolmas ekan. Demak, mazhabi parvona – butkul fidoyi oshiq bo'la olish san'atidir.

Tasavvufda parvonadek kuymak olam eliga muhabbat shevasini oshkor etmak demakdir. Nodira lirik qahramoni ruhiyatida bu omonat, o'tkinchi, foniyy dunyoga qattiq mehr bog'lamaslik, uning huzur- halovatlaridan voz kechish, asl moyaga intilish, Tangri diydoriga talpinish tamoyili kuchli. Bunday qarashning nozik badiiy ifodasini quyidagi misralarda ko'rish mumkin:

Ey ko'ngul, fig'oningdin tiyradur falak qasri.  
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et.

Amir Umarxon , Amiriy (1787-Qo'qon -1822) – Qo'qon xoni (1810-1822) zullisonayn shoir. Norbo'tabiyning o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi- Qo'qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-1808-yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira) ga uylangan.

Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun qo'shin tortganligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar va 1810-yilda Umarxonni xon qilib ko'taradilar, Olimxon esa o'ldiriladi. Umarxon Qo'qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amiriga qarashli Turkiston shahri(1815) , O'ratepani (1817) bosib olgan. Sirdaryo bo'yidagi yerlarda Yangiqo'rg'on, Julek, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan. Ular O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'lida joylashgan edi. U Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Umarxon davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, ya'ni qishloqlar vujudga kelgan. Xon amaldorlarining talonchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko'tarilgan qo'zg'olon bostirilgan. 19 asrning 1-yarmida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy – madaniy muhit vujudga kelgan – uning boshida turgan ma'rifatparvar hukmdor Umarxon ilm. Madaniyat, san'at, adabiyot, turli kasb – hunarlarning rivojiga katta e'tibor bergan, madrasalarda o'qish – o'qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo'llab – quvvatlagan. O'zi ham Amiriy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan . 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan “Majmuai shoiron” to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'azallariga tatabbu'lar bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rin tutgan.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o'ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o'rgangan, ularga ergashib ijod qilgan,

g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Aruzning turkiy adabiyotida mashhur , xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o'ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she'rlarning barchasi ishqu muhabbat

mavzuida. Ularda an'anaviy motivlar va tasavvufiy ruh ustun. O'zbek va fors – tojik tilidagi she'rlarini to'plab, devon tartib bergan. Devon g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'rni o'z ichiga olgan .

O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davrlarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan. Bu qo'lyozmalar Sankt – Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she'rlaridan namunalar berilgan bayozlar bor.

## **Xulosa.**

Shoira Nodira va Umarxonning ijodi o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan shoirlarimizdan biri hisoblanadi. Umarxonning vafotidan keyin Nodiraning vafosi o'zbek qizlarimizga namuna sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Shoiraning hayoti quvonch va shodlikka to'laligini ko'rishimiz mumkin. Uning g'azallarida o'zbek ayollariga xos vafo va sadoqat, zamonaning adolatsizligi, dunyoning beshafqatligi, Nodiraning g'azallarida yaqqol ifoda etilgan. U o'zining boshidan o'tgan qiyinchiliklarni mana shu g'azallarida yoritgan.

Umarxon lirikasida badiiy tasvir mahorati, tamsillarning originalligi, ko'p funksiyaliligi shoirning o'ziga xosligini ta'minlaydigan omillardirki, ular ijodkorni bugunga ham, kelajakka ham oshno qiladi Umarxon ham shoir, ham davlat boshlig'i bo'lib katta ishlarni olib bordi. Nodira ham unga atab yozgan g'azalida ham mana shu haqida ham to'xtalib o'tgan.

Fuqaro holig'a gar boqmasa har shoh, anga  
Hashmat – u, saltanat-u, rif'at-u, shon, barcha abas

Shoh uldurki, raiyyatga tarahhumqilsa,  
Yo'q esa, qoidai amnu amon, barcha abas

Demak, xalq ahvoli hamisha shohning diqqat markazida turishi kerak. Agar shoh fuqaro holiga boqmasa, uning hashamati-yu saltanati, shon-u shuhratining hech kimga keragi yo'q. Shoh xalqqa mehribonlik ko'rsatmasa, amnu omonlik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bu xil fikrlar uning ijtimoiy- siyosiy qarashlar tizimiga alohida salmoq bag'ishlaydi. Dilbar shaxsiyati, samimiy va ta'sirchan she'riyati sababli Nodira va Umarxon xalq qalbidan chuqur joy olganlar.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi  
9 tom 90-91-betlar T. 2005
2. O'zbek shoirlari bayoni  
"Fan" nashriyoti 1993
3. B.Qosimov , N. Jumaxo'ja  
O'zbek adabiyoti T. 2003  
10-sinf darsligi.
4. w.w.w. Ziyonet
5. w.w.w. Googol